

Yordam

Nega saytda elektron hisobotlarni to'ldirish va yuklab olish uchun 1KB "Mikrofirmalar va kichik tadbirkorlik hisoboti" yillik hisobot shakli yo'q?

Hozirgi vaqtda Davlat statistika qo'mitasi tomonidan qolgan davlat statistika hisoboti shakllari bo'yicha dasturiy ta'minotlar ishlab chiqilmoqda. Dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish ishlari tugatilgandan so'ng, hisobot shakllarini yuklab olish uchun imkoniyat yaratiladi.

Davlat statistika hisobotlarini elektron shaklda taqdim etish tizimida ro'yxatdan o'tish uchun ariza blankasini qayerdan olish mumkin?

Ariza blankasini Siz Davlat statistika qo'mitasi rasmiy saytining "Elektron hisobot" bo'limidan (<http://stat.uz/index.php/formi>) yuklab olishingiz yoki o'zingiz ro'yxatdan o'tgan joydagi tuman (shahar) statistika bo'limlaridan olishingiz mumkin.

Firma nomlarini zaxiraga olish uchun qanday ariza beriladi?

Firma nomini zaxiraga olish uchun arizani Davlat statistika qo'mitasi rasmiy saytning "Firma nomlari" bo'limi orqali berishingiz mumkin. SHaklni to'ldirib, "Yuborish" tugmasi bosilganidan so'ng, zaxiraga olinadigan firma nomlari Firma nomlarini elektron zaxiraga olish tizimi bazasiga kelib tushadi. Tizim ariza qabul qilinganligi to'g'risida xabar beradi va yodingizda saqlab qolish uchun ID raqami va parolni shakllantiradi. Ular yordamida arizani tekshirish uchun Tizimga kirish mumkin. Ariza holatini tekshirish uchun "Holatni tekshirish" manbasi bo'yicha ko'rib chiqing. Ochilgan oynaga Siz ariza bergan vaqtingizda olgan ID raqami va parolni kiriting va "Kirish" tugmasini bosing. Agar, firma nomiga ro'yxatdan o'tkazish uchun ruxsat berilgan bo'lsa, Siz ro'yxatga oluvchi organga murojaat etib, ariza holatini tasdiqlash va tadbirkorlik sub'ektini ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarini davom etirish uchun ID raqamini aytishingiz mumkin. Siz bu to'g'risida batafsil qo'llanmani saytning "Interaktiv xizmatlar" qismidagi "KTYADR" bo'limidan olishingiz mumkin.

Firma nomlarini elektron zaxiraga olish tizimi orqali firma nomini zaxiraga olish uchun ariza berib va tegishli ID va ariza parolini olib, men ID arizasi va parolni unutib qo'ydim, men nima qilishim kerak?

Agar Siz ID raqami yoki parolni yo'qotib qo'ygan bo'lsangiz, (99871) 2308092 telefon raqamiga murojaat etishingizni so'raymiz.

Davlat statistika hisobotlari shakli blankalarini qayerdan olish mumkin? Hisobot shakli qanday to'ldiriladi? Bu shakllarni to'ldirish qo'llanmalarini qayerdan topish mumkin?

Davlat statistika hisoboti shakli blankalarini Siz Davlat statistika qo'mitasi saytining "Hisobot shakllari" bo'limidan yuklab olishingiz yoki o'zingiz ro'yxatdan o'tgan joydagi tuman (shahar) statistika bo'limlaridan olishingiz mumkin. Hisobotlarning o'zida shakllarni to'ldirish bo'yicha tushuntirishlar berilgan. Statistika hisobotlarini elektron ko'rinishda taqdim etish dasturi bo'yicha qo'llanmani Qo'mita saytining "Elektron hisobot" bo'limidan (http://www.stat.uz/e_forms/) topishingiz mumkin.